

MA'NAVİY-MILLIY TARBIYADA TASAVVUFNING TA'SIRI VA AHAMIYATI

*Ulug'ov Jasur Nasirdinovich, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM Samarqand kampusi o'qituvchisi*

ВЛИЯНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ СУФИЗМА В ДУХОВНОМ И НАЦИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Улуг'ов Джасур Насирдинович, преподаватель Университета
экономики и педагогики Самаркандского кампуса*

THE INFLUENCE AND SIGNIFICANCE OF SUFISM IN SPIRITUAL AND NATIONAL EDUCATION

*Ulugov Jasur Nasirdinovich, Teacher of the Samarkand Campus
of the University of Economics and Pedagogy*



<https://orcid.org/0009-0004-4596-6168>

e-mail:

ulugov_jasur@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy pedagogikaning rivojlanishida tasavvuf qadriyatlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tasavvufning axloqiy, ma'naviy va ruhiy tarbiya jarayonlariga ta'siri, uning yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishdagi hissasi yoritib beriladi. Shuningdek, tasavvufiy ta'limotning sabr-qanoat, halollik, kamtarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Milliy tarbiya tizimida tasavvuf qadriyatlaridan samarali foydalanish yo'llari va usullari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Milliy pedagogika, tasavvuf qadriatlari, ma'naviy tarbiya, komil inson, axloqiy tarbiya.

Аннотация: В статье анализируется роль и значение мистических ценностей в развитии отечественной педагогики. Подчеркивается влияние суфизма на процессы нравственного, духовного воспитания, его вклад в формирование подрастающего поколения как полноценных людей. Раскрывается также роль суфийских учений в формировании таких качеств, как терпение, удовлетворенность, честность, смирение, гуманность. Научно и теоретически обоснованы пути и методы эффективного использования суфийских ценностей в национальной системе образования.

Ключевые слова: народная педагогика, мистические ценности, духовное воспитание, совершенный человек, нравственное воспитание.

Abstract: This article analyzes the role and significance of Sufi values in the development of national pedagogy. The influence of Sufi on the processes of moral, spiritual and spiritual education, its contribution to the formation of the younger generation as a complete person are highlighted. The role of Sufi teachings in the formation of such qualities as patience, contentment, honesty, humility, and humanity is also revealed. The ways and methods of effectively using Sufi values in the national education system are scientifically and theoretically substantiated.

Key words: National pedagogy, mystical values, spiritual education, perfect person, moral education.

KIRISH. Bugungi kunda ota-bobolardan qolgan axloqiy-ma'naviy meros va qadriyatlarni falsafiy jihatdan o'rganish hamda ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb masalalardan biridir. Yurtimizda olib borilayotgan aksariyat madaniy

tadbirlarda ham ushbu maqsad ko'zlangan. XXI asrda insoniyatga xavf tug'diruvchi tahdidlar millatlarning asrlar davomida erishgan milliy ma'naviyatiga katta xavf solayotgani bugungi davlatlar kelajagini kafolatlashlariga yo'l

qo'ymayotir. Yadro quroli xavfining oldini olish, turli ekstremistik chiqishlar, aqidaparastlik, mutaasiblik, terrorizm, giyohvandlik, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarga qarshi kurashish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolyapti. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning, davr taqozosi yuzasidan, tezkorligi va bunga aholini tayyorlashdagi qiyinchiliklar natijasida yuzaga kelayotgan obyektiv va subyektiv sabablar tufayli ayrim odamlarda o'zaro hurmat, odamiylik, rahmdillik, o'zaro yordam, mehr-oqibatning birmuncha susayishi kuzatilmoqda, nafsga berilish, aldanchilik, firibgarlik holatlari tez-tez uchrab turibdi. Bu hol, tabiiyki, kelajak avlod – yoshlar tarbiyasida jiddiy to'xtamga kelish kerakligini dolzarb qilib qo'yimoqda. Bularning barchasi milliy an'analarni yoshlar orasida keng targ'ib va tashviq qilishni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Tarixga nazar solsak, islom dini inson va insonparvarlik masalasiga alohida e'tibor qaratadi, xayrli ishlar, solih amallarni bajarib, salbiy illatlarni qoralaydi.

Islomning ilk davrlarida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning o'zlari taqvo va nafsdan o'rnak bo'lganliklari uchun Islom targ'iboti bilan bog'liq kitoblarga hojat bo'lmagan bo'lsa, undan keyin va bugungi kunda Islom va unga bog'liq ilmlarni targ'ib qiluvchi, mutaxassislar tomonidan yozilgan yoki tarjima qilingan kitoblarga ehtiyoj kattadir[1]. Ayniqsa, islom niqobi ostida harakatlanayotgan turli xil oqim va botil guruhlarini fosh etish uchun ham Islom dini va u nimani targ'ib qilishini bilish ayni muddaodir.

Shunday islomiy bilimlardan biri tasavvufdir. Tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayoni, tarixiy o'rnini ko'rsatib berish, tasavvufiy manbalarni xolisona tadqiq etish ma'naviy qadriyatlar yuksalishida o'ziga xos o'rin tutayotgani, insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashib, mehr-muruvvat, shafqat, ruhiyatda sobitlik kabi xislatlarning rivojlanishiga hissa qo'shayotgani ayni muddao, albatta. Zero, tasavvuf – uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligidan iborat ta'limotdir. Shu o'rinda, dunyo lazzatlaridan voz kechib, insonlar bilan muomalani cheklab, xavf-xatar va gunohdan shu tariqa, ta'bir joiz bo'lsa, qochib, ruhiyatni poklash emas, balki ijtimoiy faol hayot tarziga da'vat etgan g'oyalar va qarashlar, insonni sevish, Vatanni sevish, mehnatni

sevishni tarannum etgan izlanishlar tasavvuf ta'limotining yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko'rsatib berishini aytib o'tish mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham Bahouddin Naqshband ta'limoti haqida alohida to'xtalib: "Ota-bobolarimiz ulug'avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni "Bahouddin Balogardon" deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor[2]. Uning "Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin", degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'nomohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi", – degan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Bizga ma'lumki, adabiyotga befarq insonlarni uchratish mushkul. Bu hol uning nafaqat xos kishilar, balki oddiy odamlar orasida ham nufuzini oshirdi. Ibodatni mustahkam ushlagan, shariatni asos bilgan ishqi oliy odamlar yuzaga keldi. Turgan gapki, ular jamiyatga o'z ta'sirlarini o'tkazmasdan qolmadi. Ilm-u ma'rifat, odob-axloq azaliy sifat bo'lgan Turkiston o'lkasida tasavvuf gullab yashnadi. Asosli va mustahkam qarashga ega bo'lgan so'fiylarning yetishib chiqishiga sabab bo'ldi[8]. Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi pirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, Mavlono Lutfiy, Hazrat Jomiy, Alisher Navoiylar ham tassavvufiy ta'limotni o'z asarlariga jo etib, tasavvuf adabiyotiga, adabiga o'z hissalarini qo'shishdi[3].

Ma'naviy rahbarlar sifatida tasavvuf shayxlari maydonga chiqib, payg'ambar faoliyati va holatlarini davom ettirishga uringanlar. Fariduddin Attor o'zining "Tazkirat ul-avliyo" asarida shayxlar so'zini shunday ta'riflaydi: "Qur'on" va hadislardan keyin hech so'z tariqatdagi mashoyixlar aytgan so'zlaridan afzalroq emas"[4]. Tariqat shayxlari esa bejiz so'z demaydi. Hoji Abdulg'afur Abdurazzoq Buxoriyning Naqshbandiya ta'limoti asosida yozilgan "Tariqat odoblari" kitobida shirk, faqat dunyoviy g'araz uchun shar'iy ta'lim olish, musulmon kishini la'natlash yoki uni dalilsiz kofirga chiqarish, g'iybat, chaqimchilik, insonlarni tahqirlash, ahdga vafo qilmaslik, firibgarlik, ayolning jamolini ko'z-ko'z qilishi, o'ziga oro berib, haddan oshishi kabi gunohi kabiralar keltirib o'tilgan. Ushbu so'zlar ham piri komillarning sinovlardan o'tgan xulosalari bo'lsa ajabmas[5].

Tasavvuf tariqatlarining odobnomasi asrlar davomida to'ldirilgan asardir. Unutmaslik kerakki, ba'zi holatlardagi tushunmovchiliklar hududning geografik joylashuvi va xalqlarning o'z milliy an'ana va qadriyatlarini Islomdan qidirishi natijasidir. Ammo, o'zlarini tasavvufdagi guruhlar deb ko'rsatuvchi doiralarda Islom aqidalariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan tamoyillar ham mavjuddir. Hululiya, holiya, avliyoiya, sumrahiya, hubbiya, huriya, ibohiya, mutakosiliya, mutajohiliya, voqifiya, ilhomiya kabi botil guruhlar xususida Usmon Turar Najmiddin Umar Nasafiy fikrlariga asoslanib "Tasavvuf tarixi" kitobida aytib o'tadi. Tasavvufning ilk davrlaridanoq soxta tariqatlar uni tark etmagan bo'lsa-da, ta'limotdagi Ollohga intilishda nafsning har qanday ko'rinishidan voz kechish, inson shaxsini ulug'lab, Yaratgan tomon yetaklash ta'limotning sifat belgisi bo'lib qolgan edi[6].

TAHLIL VA NATIJALAR. Tasavvuf – bu insonning ruhiyati va ma'naviy olamidagi jarayon bo'lib, insonni ruhiy va axloqiy kamolotga yetkazuvchi bir bilimdir. Unda Alloh yo'lida, haqiqat yo'lida azob chekish, o'zining ezgu maqsadiga erishish uchun og'ir uqubatlarga bardosh berib, ularga bardamlik bilan chidash orif irodasini sinaydi. Agar u haqiqiy so'fiyona irodaga molik bo'lsa, azoblar qancha og'ir bo'lmasin, u chidaydi va shunda uning maqsadi hosil bo'ladi, ya'ni u Alloh vasliga yetishadi. Mashaqqat o'zidan keyin keluvchi huzurning rohatini lazzatliroq qiladi[7]. Tasavvuf ma'naviyatidagi bunday vasl insonning tug'ilishdan muddaosini belgilaydi, go'yo. Barcha dunyoviy ta'limotlar kabi tasavvuf ham oxiratdagi maqsadni eslatib, nafsga ruju qo'ymaslikka, kishilarni hushyor bo'lishga undab turadi. Tasavvufning ta'rifi juda ko'p. Ahli tasavvufning o'zlari uning ta'rifidagi bunday xilma-xillikni yaxshilik alomati deb biladilar. Ta'limotning o'ziga xos tomonlaridan biri milliy tarbiyamizga ta'siridir.

XULOSA. Milliy pedagogikaning rivojlanishida tasavvuf qadriyatlarining o'zni beqiyos bo'lib, ular yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Tasavvuf ta'limoti insonparvarlik, adolat, halollik, kamtarlik, sabr-qanoat kabi fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu qadriyatlar milliy tarbiya tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, komil insonni yetishtirishda samarali vosita hisoblanadi. Maqolada tasavvufiy qarashlarning zamonaviy ta'lim jarayoniga

integratsiya qilinishi, bu orqali yoshlarning ma'naviy yetuk va barkamol shaxs bo'lib shakllanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, milliy pedagogik an'analarni mustahkamlash, ularni boyitish va yangi avlodga yetkazishda tasavvuf qadriyatlaridan samarali foydalanish muhimligi asoslab beriladi. Shu bois, tasavvufiy merosni o'rganish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish milliy pedagogikaning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aliqulov H. Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti. Falsafa va huquq instituti. Toshkent, 2006 yil.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. Toshkent, 2016.
4. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent, 2009.
5. Ризаев И.И., Муминова З.О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.
6. Mavlanovna A.M. Problems of transforming a healthy worldview and creativity into a nationwide movement in society //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 7. – С. 32-36.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – С. 17-20.
8. Nasirdinovich U.F., Rakhmatullaevna U.L. History and contemporary social and moral approach to rationalism //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – С. 1796-1801.
9. Muhammadiyev K. Potentiality and virtuality in the philosophy of modern times //Theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука.–2022. – 2022. – T. 3. – С. 1000-1004.
10. Саматов Х.У. Парадигмальная сущность социально-экономической системы Узбекистана //Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика. – 2022. – С. 406-408.